Uzluksiz texnologiya ta'lism jarayoniga kompetensiyali yondashuvni tatbiq etish orqali quyidagi vazifalarni amalga oshirishi.O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-sonli "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limgining davlat ta'lism standartlarini tasdiqlash to'g'risida" qaroriga muvofiq uzluksiz ta'lism, xususan umumiy o'rta ta'lism maktablarining ta'lism mazmuni yangilandi, o'quv dasturlari va o'quv fanlari bo'yicha DTS kompetensiyali yondoshuv asosida qayta ishlandi. Davlatimizning kelgusida jamiyat, fan, ishlab chiqarish va shaxsning mustaqil hayotdagi muammolarni hal etishga qodir yoshlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini qondirish maqsadida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda ijodiy qo'llashga o'rgatish;

Mazkur kompetensiyali yondoshuv asosida shakllantirilgan DTS amaliyotga joriy etish ta'lism-tarbiya jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyalashni talab etadi.Jahonning rivojlangan mamlakatlarining ta'lism tizimidagi ilg'or tajribalarni o'rganish uzluksiz texnologiya ta'lism jarayoniga kompetensiyali yondashuvni tatbiq etish zarurligini ko'rsatdi. Texnologiya ta'lism mazmunini muammoli o'quv vaziyatlarni yaratish orqali o'rganish asnosida o'quvchilarning fan asoslarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, qiziqishlarini rivojlantirish, shaxsiy sifatlarini tarkib toptirish;O'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini aniq texnologiya ob'ektlarga qaratish va mavjud muammolarni hal etishga o'rgatish orqali DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish barobarida o'quvchilar tomonidan ijodiy faoliyat tajribalarini egallanishiga erishish;O'quvchilarni aniq amaliy faoliyatga tayyorgarligini orttirish orqali kasbga, ijodiy faoliyat tajribalarini rivojlantirish natijasida fan yo'nalishiga yo'llash;Texnologiya va chizmachilik darslarda o'zlashtirilgan ilmiy-nazariy bilimlarini aniq va jarayonli muammoli vaziyatlarda amaliyotda qo'llash orqali o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash imkoniyati mavjud.Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati texnologiyadan tashkil etilgan ta'lism-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusida kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish sanaladi. O'quvchilar kelgusida hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhim o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lism maktablari zimmasiga ta'lism-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, umummadaniy kompetensiyalar, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanimish kompetensiyalarini tarkib toptirish vazifasi yuklatilgan.

Texnologiya ta'lism mazmunini tanlash va metodik ta'minotini yaratishda o'quvchilarning qiziqishlarini orttirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, axloqiy, g'oyaviy-siyosiy, ekologik muammolarni hal etish, didaktik jihatdan qayta ishlangan o'zida o'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llash, o'zlarining hayotiy tajribalari, kuzatishlari yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradigan o'quv topshiriqlari



bo'lishiga e'tibor qaratish; Texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda asosiy maqsad o'quvchilarda DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, shuningdek, axborot bilan ishlash, kommunikativ ko'nikmalarni egallash, matematik savodxonlik, ijtimoiy faollikka ega bo'lish, o'quv muammolarini mustaqil hal etishga doir tajribalarni egallahshlariga sharoit yaratish; Ta'lim-tarbiya jarayoniga kompetensiyali yondashuv o'qitish maqsadlariga erishish uchun ta'lim mazmunini boyitish o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va natijalarini tahlil etishga imkon beradigan umumiy prinsiplar yig'indisi sanaladi.

O'quvchilarning mustaqil hayotdagi turli faoliyat va yo'nalishlardi muammolarni o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalar, o'zlarining hayotiy tajribalari, kuzatishlari, shaxsiy xulosalariga asoslanib hal etish, muammoli vaziyatlarda talab etiladigan faoliyatni maqsadga muvofiq bajarish qobiliyatlarini rivojlantirish;

Ta'lim-tarbiya jarayonining natijalari mazkur jarayonning muayyan bosqichida erishilgan natijalar, ya'ni o'quvchilar tomonidan kompetensiyaga asos bo'ladigan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirganlik darajalariga qarab baho berish; Kompetensiyali yondashuvda – o'qitish maqsadlari o'quvchilar tomonidan o'z-o'zini anglash, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quv maqsadlariga erishish yo'llarini tushunish, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, o'quvchilarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish orqali jamiyat va mustaqil hayotga moslashuvi, ijtimoiylashuvi kabi ustuvor yo'nalishlarni mo'ljallash nazarda tutish zarur. Kompetensiya tarkib toptirish usullari va shaxs hayotidagi ahamiyatiga ko'ra darajalarga ajratiladi. O'quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat texnologiya o'quv fani orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi.

Adabiyotlar tahlili o'quvchilarda tarkib toptiriladigan kompetensiyalar uch darajaga ajratilishini ko'rsatdi.

Tayanch kompetensiyalar – umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv rejasidan o'ren olgan barcha o'quv fanlari mazmuni va o'qitish jarayoni orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar sanaladi. Umumiy (predmetli) kompetensiyalar- o'quv rejadan o'ren olgan ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-matematik va amaliy o'quv fanlarni o'qitishda o'zaro fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar nazarda tutildi.

Xususiy (texnologiya) kompetensiyalar –texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonida DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma va malakalar asosida tarkib toptiriladigan kompetensiyalar hisoblanadi. Texnologiya fanidan o'quvchining kompetensiyasi –fizika fani bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir.

Texnologiya o'qituvchisi o'quvchilarda yuqorida qayd etilgan tayanch kompetensiyalarni tarkib toptirish maqsadida o'quv fani mazmunini tahlil, etishi, o'qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda olib boriladigan ishlarni tizim va bir-biriga uzviy ravishda amalga oshirishni loyihalashi lozim. O'quvchilarda yuqorida qayd etilgan o'quv mehnati ko'nikmalarining tarkib toptirilishi uchun o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. Shuni qayd etish kerakki, texnologiya darslarida didaktik o'zin texnologiyasining konferensiya, matbuot konferensiysi, o'zin mashqlar, hamkorlikda o'qitish texnologiyasining kichik guruhlarda ishlash, komandada o'qitish, "arra" yoki "zigzag", "Birgalikda o'qiyimiz" metodlari, muammoli ta'lim texnologiyasini "Aqliy hujum", "Keys-stadi" metodlaridan foydalanish orqali o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish barobarida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyati mavjud. Texnologiya o'qituvchisi o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini tarkib toptirish maqsadida mavzuga oid o'quv va videofilmlardan foydalanishi, qo'shimcha adabiyotlar va internet saytlaridagi ma'lumotlarni saralashi, shu asosda o'quvchilarga referat, doklad va taqdimot materiallarini tayyorlash yuzasidan topshiriqlarni berish orqali ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishi uchun dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg'ulotlardan samarali va o'z o'mida foydalanishi zarur. Texnologiya o'qituvchisi ta'lim tarbiya jarayonida o'quvchilarda yuqorida ko'rsatilgan kompetensiyalarni har bir mavzuni o'rganish jarayonini loyihalashda dastlab shu mavzu mazmunidagi bilim, ko'nikma va malakalar asosida tarkib toptiriladigan tayanch, umumiy va xususiy kompetensiyalarni belgilashi, darsning texnologik xaritasida mazkur masalalar o'z ifodasini topishi zarur. O'quvchilarda tayanch, umumiy va fanga doir xususiy kompetensiyalarni tarkib toptirishda Blum taksonomiyasi asosida shakllantiriladigan



o'quv maqsadlari muhim o'rinni tutadi. Texnologiya ta'limgardagi jarayonida innovatsion texnologiyalar, jumladan, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarining shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini tarkib toptirish imkonini beradi. Shu bilan birgalikda ta'limgardagi jarayonida xususiy texnologiya kompetensiyalarni tarkib toptirish yo'llarini, ya'ni biologik ta'limgardagi kompetensiyalarni aniqlashi lozim. Xulosa qilib aytganda, o'quvchilar tayanch, umumiyligi va fanga doir xususiy kompetensiyalarni tarkib toptirish muammosi o'qituvchilarining kasbiy pedagogik kompetensiyalariga aniqlik kiritish, pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv talablarasi asosida kurslarning mazmunini yangilash, shu asosda o'qitishni tashkil etish va boshqarish davr talabi sanaladi.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Mirziyoev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016.-56 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagagi Umumiy o'rta ta'limgardagi "risida" nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 140-sonli Qarori. – T.: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 11-son, 167-modda.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limgardagi davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarori. – T.: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 14-son, 230-modda.

4. Sharipov Sh.S. va boshqalar. Mehnat ta'limi: Umumiy o'rta ta'limgardagi maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: "Sharq", 2012.-240 b.

5. Qo'ysinov O.A., Tohirov O.O., Mamatov D.N., Aripova D.F. Mehnat ta'limi. 5-sinf. // O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: "POYTAXT-PRINT" MCHJ, 2016.-176 b



AYOLLAR NOTIPOVOY QOMAT TURLARINI O'RGANISH VA ULARNI TAHLILI

Abduraximova Manzura Sodiqovna

Наманган Мухандислик Технология институту

"Енгил саноат маҳсулотлари технологияси ва жихозлари"
(тикув буюмлари) мутахасислиги, 15M-20 1курс магистри
+99899-990-47-26

Annotatsiya: ushbu maqolada ayollar notipovoy qomat turlari va ularning tikuvchilik sanoatida ahamiyati tahlil etilgan bo'lib, tipovoy tuzilishdan og'ishgan qomatlarga mos kiyimlarning konstruktiv xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: gavda, qomat, tur, ayollar qomati, notipovoy qomat, tipovoy qomat.

Odamlar orasida gavda tuzilishining turli xil individual xususiyatlari, ya'ni turli qomatlar uchraydi. Har qanday qomatda ham kishi gavdasi muvozanatda bo'ladi. Bunga uning turli qismlarining moslashish vositalari bo'yicha erishiladi. Har bir qomat umurtqa va tananing ma'lum bir shakli, bosh va qo'l-oyoqning holati bilan xarakterlanadi. Qomatni xarakterlovchi asosiy belgilar umurtqa va tana shakli hisoblanadi. L.P. Nikolayevning qomatni tasniflab bergen taklifi tikuvchilik sanoatida ko'proq qiziqish uyg'otdi. Bunga ko'ra, u qomatni beshta turga bo'ladi: normal, to'g'ri, bukchaygan, lordoz va kifoz.

Normal qomat umurtqa pog'onasining bir tekis egilganligi bilan xarakterlanadi. **To 'g'ri qomat** umurtqa pog'onasi hamma bo'limlarining kuchsiz egilganligi bilan xarakterlanadi. **Bukchaygan qomat** bo'yin lordozining oldinga ko'proq egilganligi va bel lordozining kamayganligi (orqa dumaloq shaklda bo'ladi) bilan ajralib turadi. A.P. Nikolayevning ma'lumotlariga ko'ra, bunday qomatlar ko'proq qariyalarda uchraydi. **Lordotik qomat** bel lordozining kuchli va bo'yin lordozining kuchsiz rivojlanganligi bilan xarakterlanadi. **Kifotik qomat** ko'krak kifozining keskin kuchayib ketishi bilan xarakterlanadi.

Tikuvchilik sanoatida qabul qilingan ayollar qomatining tasnifi bo'yicha bukchaygan, normal va kekkaygan turlari farqlanadi. Bukchaygan qomatning orqasi ko'zga tashlanadigan darajada dumaloqroq, ko'krak chiqqan, yelka oldinga bukchaygan, belda biroz egilish bor, ko'kraklar tor, orqa kengaygan, orqa belgacha uzunroq, old kaltaroq bo'ladi. Normal qomat - o'rtacha variant, to'g'ri qomat va to'g'ri toslar bilan xarakterlanadi. Kekkaygan qomatning orqasi yassi, kuraklar tekis, yelkalar orqaga yo'nalgan, bel ko'proq egilgan, ko'krak keng, orqa toraygan, old belgacha uzunroq, orqa belgacha kaltaroq bo'ladi.

Qomat, shuningdek, yelka qiyaligi, ya'ni yelka balandligi bilan ham xarakterlanadi va baland, normal, past yelka turlari uchraydi. Ayollar yelka qiyaligining o'rtacha burchagi $< 21^\circ$ ni tashkil etadi. Qiyalik burchagi o'zgarishi bilan yelka balandligi ham o'zgaradi. Yelka balandligi qisman yelka shakliga ham ta'sir qiladi: past yelka bo'yinni uzunroq ko'rsatadi, baland yelka esa bo'yinni kaltaroq ko'rsatadi. P k (gavda holati) ko'rsatkichida faqat bo'y o'lchamlari o'zgaradi, bo'y kattalashgan sari u ham oshadi. Vp1 (yelka balandligi) ko'rsatkichi esa bo'ylar va o'lchamlar bo'yicha o'zgaradi. Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, bo'yin va yelka nuqtalari balandliklarining ayirmasi bilan aniqlangan yelka balandligi uni yetarli darajada ifodalay olmaydi. Shu bois bo'yin asosi va yelka antropometrik nuqtalar balandliklarining ayirmasi Vp1 maqsadga muvofiq deb topilgan. Odamning qomati ort bo'lak o'rta chokillining konstruktiv yechimiga va buyumdag'i balans nuqtalar holatiga ta'sir qiladi. Shuning uchun ayollarning aniq qomatiga kiyim loyihalashda qomatning o'lchamlari bo'y va to'lalik guruhi bo'yicha unga muvofiq bo'lgan turli qomat o'lchamlari bilan solishtirib, O'lchami topiladi.

Tikuvchilik sanoatida qabul qilingan qomatlarning sinflanishi. Uch xil - bukchaygan, normal, egilgan qomat turlari farqlanadi. P.N. Bashkirovning fikriga ko'ra, bu qomat turlari antropologiyada qabul qilingan bukchaygan, normal va lordotik qomat turlari qaysidir jihatlari bilan mos tushadi. Gavdani u yoki bu qomat turiga kiritish uchun tananing yuqori qismi egriligini va korpus holatini aniqlovchi parametrlar ishlataladi. Shuningdek, qomatni yelka balandligi - Vp bilan xarakterlanadigan 3 ta turga ajratiladi. Yelka balandligi - bu bo'yin va yelka nuqtalari orasidagi farqdir. Korpusning parametri gavdaning o'lchamiga, bo'yiga va to'laligiga bog'liq bo'ladi, bunda ular oshishi bilan Kh ham oshadi. Yelka balandligi parametri esa faqat bo'yga bog'liq bo'lib, bo'y ortishi bilan u ham ortadi. Sanoatda ishlab chiqariladigan buyumlar faqat tipaviy qomatlarga



moslab tayyorlanadi. Lekin, xayotda normaldan farqlanadigan qomatlar uchrab turadi. Ular qatoriga bukchaygan va kekkaygan, past yelkali va baland yelkali turlar kiradi. Ular uchun qaddi-qomatni tavsiflaydigan o'lchamlardan biri gavda holati yoki yelka balandligining me'yordan farqlanishidir.

Xulosa qilib aytganda odamning kiyim tizimida o'lchamlar to'g'ri kelmasa, balans buzilib, qator nuqsonlar paydo bo'ladi. Natijada, yon chocklar, yeng holati vertikaldan og'adi, kiyimning etagi tashqi ko'rinishni buzadi. Demak, qomatda kiyim o'rnashining sifatiga birinchi navbatda qomat tuzilishi ta'sir etar ekan. Notipoviy tuzilgan qomatlarda kiyim konstruksiyasining oldi-orqa va yon balanslari buziladi. Bu hol o'z navbatida kiyimning o'rnashuvida qator nuqsonlarga sabab bo'ladi. Xar bir konstruktiv chiziqning o'lchamlar o'zgarishiga mos holatini o'zgartirishidan dalolat beradi. Misol uchun, tipovoy qomatga mos konstruksiyadan farqli ravishda bukchaygan (notipovoy) qomatga mos konstruksiyada orqa bo'lak old bo'lakdan uzunroq- lekin kekkaygan qaddi-qomatga mos konstruksiyada aksincha o'zgarishlar kuzatiladi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Дунаевская Т.Н., Коблякова Е.Б., Ивлева Г.С. Размерная типология населения с основами анатомии и морфологии человека. М., 1980 г
2. Методика конструирования женской и мужской верхней одежды ЦНИИШ П. М., 1980 г.



“TEXNOLOGIYA” FANIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH.

Ro’ziyev Nodirjon Normurod o’g’li
Navoiy shahar 12-IDUM texnologiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Texnologiya fani boshlang’ich ta’lim yo’nalishida umumlashgan holda, 5-9-sinflarda —Texnologiya va dizayn”, “Servis xizmati” yo’nalishlarida o’qitilishi belgilandi. 5-9-sinflarda —Texnologiya va dizayn”, “Servis xizmati” yo’nalishlariga yangidan —Polimer materiallarga ishlov berish texnologiyasi, —Elektronika asoslari va —Ro’zg’orshunoslik asoslari bo’limlari kiritilib, mavjud bo’limlardagi mavzular qayta ko’rib chiqilib, takomillashtirildi. Barkamol shaxs tarbiyasida, albatta, mehnat ta’limining ham alohida o’rni bor.

Kalit so’zlar: interfaol texnologiyalar, muammoli ta’lim, samaradorlik, o’qitish texnologiyalar, sinfdan tashqari ishlar, mehnat, kognitiv xususiyatlар, texnologiya.

Ushbu o‘quv fani o‘quvchilarda aqliy va jismoniy mehnat turlari, mehnat jarayonlari haqida keng tushuncha hosil qilish, mehnatga oid ko’nikma va malakalarini rivojlantirish kabi ta’limiy maqsadlarga xizmat qiladi. Shuningdek, yoshlarni mehnat va kasblarni qadrlashga o’rgatish, ijtimoiy hayotda ularning ahamiyatini tushuntirish, kasb asoslari (texnologiyasi) haqida bilim hosil qilish hamda mакtab davridan bolada kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish mehnat ta’limi fani o’qituvchilarining asosiy vazifasiga kiradi. Xususan, mehnat qurollari, vositalari, jarayonlari, hududiy ishlab chiqarishning asoslarini o’rgatish, texnika va texnologiyalar asosida egallanayotgan kasb-hunar sohasi xususiyatlari, shu sohaning ilg’or vakillari faoliyati bilan tanishtirish hozirgi kunda umumiyo’rta ta’lim maktablarida mehnat ta’limi fanining asosiy maqsadidir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun mehnat ta’limi o’qituvchilari fan yo’nalishi bo’yicha yil davomida amalga oshiriladigan ishlarni belgilab olishlari lozim.

Sinfdan tashqari mashg’ulotlar deganda boshlang’ich umumiyo’rta’limning asosiy ta’lim dasturini o’zlashtirishning rejalshtirilgan natijalariga erishishga qaratilgan va sinf mashg’ulotlaridan boshqa shakllarda olib boriladigan ta’lim faoliyati tushunilishi kerak. Sinfdan tashqari ishlar an’anaviy dars emas, balki Davlat Ta’lim Standarti tomonidan e’lon qilingan ta’lim natijalariga erishishga qaratilgan. Avvalo, bu shaxsiy va metasubject natijalariga erishishdir. Shu bilan birga, sinfdan tashqari ishlar kompensatsion xarakterga ega: ular darsda echib bo’lmaydigan ta’lim muammolarini hal qilishga yordam beradi. Bu, shuningdek, sinfdan tashqari ishlarning o’ziga xos xususiyatlarini belgilaydi, bu vaqtida o’quvchi nafaqat harakat qilishni, his qilishni, qaror qabul qilishni va boshqalarni o’rganishni o’rganishi kerak.

Maktab o’quvchilarining sinfdan tashqari ishi mashg’ulotlarga nisbatan juda katta ustunlikka ega - u bunday majburiyat va jiddiylikning izini bermaydi. Sinfdan tashqari ish o’qituvchilar va o’quvchilarga darsdagi kabi qat’iy majburiyatlarini yuklamaydi, shuning uchun nostandard va ijodiy o’qitish usullaridan foydalananishga imkon beradi. Maktab o’quvchilarini sinfda hech kim ularga yomon baho bermasligini yaxshi bilishadi va ularning nimanidir o’rganish va yuqori malakalar va bilimlarga ega bo’lish istagi faqat ularning qiziqishiga bog’liq. Sinfdan tashqari ishlarda o’quvchilar o’zini tutishlarini darslarga qaraganda ancha erkin tutishadi, ular ko’proq g’oyalarni taklif qilishlari mumkin. Sinfda o’quvchilar o’zlariga yoqadigan va keyinchalik hayotda foydali bo’lishi mumkin bo’lgan narsalarni o’rganish uchun baholash uchun emas, balki o’zlar uchun, o’zlar uchun ishlaydi.

Bularning barchasi sinfdan tashqari ishlarda o’quvchilar ko’proq shaxs sifatida namoyon bo’lishiga va o’zlarining iste’dodlarini yanada aniqroq namoyon bo’lishiga olib keladi. Shuning uchun o’qituvchi o’quvchilarning ushbu xohish-istagini o’rganish uchun ishlatishi kerak. O’qituvchi o’quvchilarning ishga bo’lgan shaxsiy qiziqishi tufayli yaxshiroq assimilyatsiya bo’lishiga umid qilib, ushbu mavzu bo’yicha kengaytirilgan o’qitishni olib borishi mumkin. Davlat Ta’lim Standartini joriy etish nuqtai nazaridan sinfdan tashqari ishlar yangi dolzarblikka ega bo’ladi, chunki bu uning tashkil etish majburiyatini ta’milagan standartlar edi. Sinfdan tashqari ishlar orqali o’qituvchi o’quvchilarga loyihalarni qanday bajarish, aqliy hujumni qanday ishlatishni va boshqa ijodiy usullarni ehtiyyotkorlik bilan o’rgatishi mumkin. Bu matabga o’qitishning yangi sifatiga erishishga imkon beradigan manba. Ta’kidlash joizki, matabdan tashqari ishlar matab uchun majburiyidir va bola tanlash huquqiga ega. Sinfdan tashqari mashg’ulotlar bolaga qiziqish doirasini tanlashga, ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.



Sinfdan tashqari ishlarning maqsadi - erkin tanlash, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni va madaniy an'analarni anglash asosida bola qiziqishlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratish. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar bir qator juda muhim vazifalarni hal qilishga imkon beradi:

- bolaning matabda qulay moslashishini ta'minlash;
- o'quvchilarning o'quv yuklamasini optimallashtirish;
- turli xil faoliyat turlari uchun o'quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatları, imkoniyatlarini aniqlash;
- sinfdan tashqari ishlarning tanlangan yo'nalishi bo'yicha bolaning individual rivojlanishi uchun sharoit yaratish;
- tanlangan faoliyat yo'nalishi bo'yicha bilim, qobiliyat, ko'nikmalar tizimini shakllantirish;
- ijodiy faoliyat tajribasini, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;
- olingan bilim, ko'nikma va malakalarni amalga oshirish uchun sharoit yaratish;
- norasmiy aloqa, o'zaro hamkorlik, hamkorlik tajribasini rivojlantirish;
- jamiyatdagi aloqa doirasini kengaytirish.

Maktabda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish tamoyillari quyidagilardan iborat.

- o'quvchilarning yosh xususiyatlariiga muvofiqligi;
- ta'lim faoliyati texnologiyalari bilan uzlusizligi;
- sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda an'analar va ijobjiy tajribaga tayanish;
- maktabning ta'lim tizimining qadriyatlariiga tayanish;
- bolaning shaxsiy qiziqishlari va moyilliklari asosida erkin tanlov.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ota-onalarning, o'quvchilarning qonuniy vakillarining so'rovlari, maktab faoliyatining ustuvor yo'nalishlari, o'qituvchilarning qiziqishlari va mayllari asosida olib borilishi kerak.

Darsdan tashqari mashg'ulotlar:

- Kognitiv
- O'yin xonasi
- Mehnat (ishlab chiqarish) faoliyati
- Dam olish va ko'ngilochar tadbirlar
- Sport va ko'ngilochar tadbirlar
- Turistik va o'lkashunoslik faoliyati
- Badiiy ijod
- Ijtimoiy ijod (ijtimoiy o'zgaruvchan faoliyat)

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Avazboev A.I. Kasb ta'llim metodikasidan amaliy mashg'ulotlar. Metodik qo'llanma. –Toshkent: TDPU, 2007. 30 b.
2. Anorqulova G.M,Abduqodirov G",Luxmonov D, To"lqinova X. Texnologiya ta'llimi praktikumi/ Darslik. T.: Turon-iqbol 2018.
3. Babajonov M.A. "Texnologik jarayonlarni loyixalash"" Cho"lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2009.
4. Muslimov N.A, Sharipov Sh.S, Qo"ysinov O.A. Mehnat ta'llimi o"qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash/ Darslik/ T. TDPU, 2014.
5. Muslimov N.A, Sharipov Sh.S, Sattorov.V.N, DavletovK.D. Mehnat ta'llimi o"qitish metodikasi. O,,quv qo,,llanma/ T.2009. 417b.
6. Muslimov N.A, Sharipov Sh.S, Qodiro vM. "Texnik ijodkorlik va dizayin". T.: "TDPU", 2010 yil
7. Qurbonov B, Muhiboyev M, Qurbonova G". Mehnat ta'llimi o"qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. O"quv qo'llanma. Guliston.: 2013 y.
8. Olimov A, Qosimov A. Mashinasozlik texnologiyasi.Toshkent O"zbekiston-2003.



UZTE16М ТЕПЛОВОЗИ АРАВА РАМАСИННИ ТОРМОЗЛАШ РЕЖИМИДАГИ ҲИСОБИ

Ахмедов Асилбек Гайрат ўғли

Тошкент давлат транспорт университети магистри

Телефон: +998(90) 959 57 52

asilbek-040495@mail.ru

Аннотация: Локомотив арава рамаси фойдаланиш пайтида верикал ва горизонтал сатхларда таъсир қиласиган куч омиллари комплекси таъсирига дуч келади. Верикал кучлар (юкламалар), локомотив ҳаракати давомида асимметрик цикл бўйича ўзгаради. Циклнинг ўртача юкламаси кузов массаси, тортув кучи ва тормозланишдан юзага келадиган, шунингдек, локомотивнинг йўлнинг эгри участкаларидан ҳаракатланишидан келадиган кучларнинг алгебраик сўммасига teng.

Калит сўзлар: Тепловоз арава рамаси, тормозлаш режими, асимметрик цикл, цикл амплитудаси, калодкаалар, бандаж, инерция кучи, кронштейнлар.

Юкламанинг динамик [1] таркибий қисми (цикл амплитудаси) ғилдиракларнинг релс билан ўзаро таъсири билан белгиланадиган локомотив верикал тебранишларида юзага келади. Горизонталь кучлар, верикал кучлар каби локомотивнинг йўлнинг тўғри ва эгри участкалар бўйлаб ҳаракатланишида пайдо бўлади.

Калодкаалар [2] икки томондандан сиклгандаги тепловознинг $T_{\text{л}}$ тормоз кучи:

$$T_{\text{л}} = 4n_{\text{л}}Nf,$$

Бу ерда : N – тормоз калодкаасини сиқилиш кучи $N = 30 \text{ кН}$.

$n_{\text{л}}$ – тепловознинг ғилдирак жуфтлиги сони $n_{\text{л}} = 6$.

f - бандаждаги калодканинг ишқаланиш коэффициенти $f = 0,25$.

$$T_{\text{л}} = 180.$$

Кузовнинг инерция кучи T_{k} :



$$T_k = 4n_d N_f \frac{P_k}{P_k + 2P_t},$$

Бу ерда : P_k – кузов оғирлиги $P_k = 903$ кН.

P_t – Араванинг рессорлангандағи оғирлиги $P_t = 3 \cdot 43,15 = 129,45$.

$$T_k = 279,7 \text{ кН.}$$

Ишқаланишдаги инерция кучи:

$$T_k = P_k \Psi,$$

Бу ерда : Ψ - ишқаланиш коэффициенти $\Psi = 0,33$.

$$T_k = 298.$$

Олдинги араванинг қўшимча юк олиши:

$$Q_t = \frac{T_k (h_k - h_{on})}{2B_t},$$

Бу ерда : $2B_t$ – кузов таянчлари орасидаги масофа $2B_t = 9,22$ м

h_k – кузовнинг оғирлик марказидаги баландлиги $h_k = 2,5$ м

h_{on} – релс каллагидан кузов таянчигача бўлган баландлик $h_{on} = 1,22$ м.

$$Q_t = 41,37 \text{ кН.}$$

Битта таянчдаги оғирлик кучи:

$$P_t = \frac{Q_t}{4} = \frac{41,37}{4} = 10,34 \text{ кН.}$$

Рессор таянчларида вертикал реакциялар:

$$R_t = \frac{Q_t}{12} = \frac{41,37}{12} = 3,45 \text{ кН.}$$

Горизонтал реакциялар.

Инерция кучи:

$$T_{kt} = 3(\Pi_{ct} - P_{np}) \Psi,$$

Бу ерда: Π_{ct} – ўққа тушадиган оғирлик $\Pi_{ct} = 226$ кН.

P_{np} - бир ўққа тўғри келадиган рессорланмаган оғирлик $P_{np} = 43,15$ кН.

$$T_{kt} = 181 \text{ кН.}$$



Кронштейнлардаги реакция:

$$H_t = \frac{T_{KT}}{12},$$

$$H_t = 15,08 \text{ кН.}$$

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдурасолов Ш.Х. «Локомотив арава рамасини кучланиш ҳолатини тадқиқ этиш ва чидамликка ҳисоблаш» магистрлик диссертацияси. Тошкент, 2019-йил.
2. Файзиев Б.Т., Ширяев А.Ф. и Рузиева М.В. Разработка технологий освидетельствования и восстановления рам тепловоза серии ТЭ10М для продления срока их службы: отчет по научно-исследовательской работе. Индекс, номер темы х/д №84/61 от 10.01.2007г. – 225 с.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(16-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000